



KARANTIN TUSHUNCHASI VA UNGA OID CHEKLOVLAR

G`aniyev Farrux Taxirjanovich

O`zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi Huquqbuzarliklar
profilaktikasi faoliyati kafedrasida katta o`qituvchisi Toshkent, 100197,
Uzbekistan, e-mail: fargan77@bk.ru

orcid.org/0009-0005-2423-050X

Ganiyeva Gulandon Ibragimovna

Namangan davlat universitetining Psixologiya (faoliyat turlari
bo'yicha) yo'nalishi 2-kurs magistranti

O'rozmatova Elmira Farxod qizi

O`zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 3-o'quv kursi 315-guruh
kursanti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14236884>

ARTICLE INFO

Received: 19 th November 2024
Accepted: 20th November 2024
Published: 28th November 2024

KEYWORDS

Karantin, tashkilot,
jahon sog'liqni saqlash
tashkiloti, tibbiyot, yuqumli
kasalliklar, epidemiya, favqulod
va komissiya.

ABSTRACT

Karantin – bu kasalliklarning tarqalishi oldiga qo'yilgan maqsadda belgilab qo'yilgan davr baynida shahslar, vanvonlar, simliklar yoki o'rnatish choralari ni ko'rish mumkin. Ushbu maqolada himoyalanganligini aniqlash, tibbiy va ijtimoiy hayotiy jarayonlarni aniqlash. Xususan, xavfsizlikning asosiy asoslari, uni yo'qotish tartiblari va tuzatishlar davrida jamiyat hayotiga bo'lish. Karantin (italyancha "quarantena- qirq kun), karantinlash- tibbiyotda o'ta xavfli yuqumli kasalliklar tarqalishini cheklashga qaratilgan epidemiyaga qarshi ma'muriy va sanitariya tadbirlari majmui bo'lib, ma'lum hududni kasallik tarqatuvchi manbadan muhofaza qilish va uni yo'qotishga, uning bir joydan boshqa joyga tarqalib ketishiga yo'l qo'ymaslikka qaratilgan profilaktik tadbir hisoblanadi. Karantin epidemiyaga qarshi kurashish favqulodda komissiyasi tomonidan e'lon qilinadi va Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) tomonidan qabul qilingan «Xalqaro tibbiy-sanitariya qoidalari» (konvensiya) asosida amalga oshiriladi. Shuningdek unga bo'yicha cheklovlarga qarash, ichki ham shaxsiy erkinliklarga boshqarish munosabat zaralar yuritiladi. Maqolada turli davlatlar tajribasi va ularga qarshi kurashilgan chora-tadbirlar o'rnatilgan. Karantinning tavsiyalarini samaradorligini oshirish uchun taklif va takliflar jamlanmasi. ushbu tashkilot jamoasi sog'lig'ini ta'minlash va inson huquqlarini muhofaza qilish yordami muvozanatni ta'minlashga qaratilgan echimlarni ishlab chikarish

Karantin kelib chiqish tarixiga nazar solsak manbalarda asosan XIV asrda Italiyada ilk bora qo'llanilganligi haqida keltiriladi. Ushbu mamlakatda karantin quyidagi ko'rinishda bo'lgan ya'ni o'lat tarqalgan yurtdan kelgan kema qirq kungacha qirg'oqqa yaqinlashtirilmasdan dengizda ushlab turilgan. Dastlab karantin juda ko'p kasalliklarda hattoki unchalik xavfli bo'lmagan kasalliklarga nisbatan ham joriy etilgan. Hozirgi kunda esa karantin faqat o'ta xavfli yuqumli kasalliklar davrida joriy etiladi. Indoneziyaning "Detik" yangiliklar saytida «Karantinni joriy etishning asosiy g'oyasi Abu Ali ibn Sino tomonidan ishlab chiqilgan» sarlavhali maqola chop etilgan bo'lib maqolada Ibn Sino o'z amaliyotida vabo kasalligiga duch kelgani haqida ma'lumot berilgan. U infeksiyani kamaytirish uchun bemorni 40 kunlik o'zini o'zi yakkalab qo'yish konsepsiyasini ishlab chiqqan. Arab tilida bu usul «al-Arbaniya» (40 kun) deb nomlanib keyinchalik ushbu termin Yevropa olimlari tomonidan boshqacha talaffuz qilina boshlagan. Tarixchilarning taxmin qilishicha, «al-Arbaniya» «karantin» so'ziga asos bo'lib xizmat qilgan.

Kirish

Jahon sog'lig'ini saqlash (JSST) yordami uchun tibbiy yordam ko'rsatish, xavfsizlik choralari qo'shimcha tibbiy yordam ko'rsatish. Karantin faqat tibbiy yordam emas, inson huquqlari, balki jamiyat xavf-xatarsizligi va davlatning ijtimoiy-iqtisodiy iqtisodini ham qamrabShuningdek karantin o'simliklar himoyasida mamlakat hududiga qishloq xo'jaligi ekinlarining juda xavfli zararkunandalari, kasallik qo'zg'atuvchilari va begona o'tlarning kirib kelishidan himoya qilish va zararlanish o'choqlarini aniqlash, ihtotalash va yo'qotishga qaratilgan davlat chora-tadbirlari tizimi hamdir.

Karantin atamasi "epidemiya", "pandemiya" kabi tushunchalar bilan bevosita bog'liq bo'lib, epidemiya bu infeksiyon kasalliklarning ma'lum hududda, odatdagidan ko'p tarqalishi hisoblanadi hamda *endemiya epidemiyasi* va *pandemiya epidemiyasi* farqlanadi.

Infeksiya manbai (kasallik qo'zg'atuvchisi bilan zararlangan odam yoki hayvon), qo'zg'atuvchining yuqish sabablari, shuningdek organizmning mazkur kasallikka beriluvchanligi uzoq vaqt saqlanganda epidemiya vujudga keladi va davom etadi. Bunda tez kasallik o'chog'ini topib, atrofdagi aholining xavfsizligini ta'minlash, kasallik qo'zg'atuvchi mikroorganizmlarning bemorlardan sog'lom odamlarga o'tish yo'llarini bartaraf etish (masalan, bemorlarni ajratib qo'yish) va kasallikka beriluvchan kishilarni emlash choralari ko'riladi.

Pandemiya (yunoncha pandemos-yoppasiga, xalqaro) – epidemik kasallikning bir mamlakat, bir necha mamlakat, qit'a yoki kontinentda yoppasiga tarqalishi. Pandemik tarqalish havotomchi yo'li bilan yuqib, inkubatsion davri qisqa yuqumli kasalliklarga xos. Grip, Covid-19 kabi kasalliklar bunga misol bo'ladi.

Insoniyat tarixida yuz bergan eng katta pandemiyalardan biri 2019-2022-yillarda yuz bergan Covid-19 pandemiyasi bo'ldi desak mubolag'a bo'lmaydi.

2019-yilning dekabrda Xitoyning Uxan shahrida qayd etilgan Covid-19 pandemiyasi 2020-yilning 11-martida Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tomonidan pandemiya deb e'lon qilindi va ushbu kasallik butun dunyo mamlakatlariga kirib borishi munosabati bilan ko'plab davlatlarda kasallikning oldini olish maqsadida sayohat qilishni cheklash, karantin, komendantlik soati, tadbirlarni keyinga qoldirish va bekor qilish hamda muassasalarni yopish kabi chora tadbirlar ko'rildi. 2020-yil 15-mart kuni O'zbekistonda ham koronavirusga chalingan ilk bemor qayd qayd etildi va 16-mart kundan mamlakatimiz hududida ham karantin cheklovlari joriy etildi.

Covid-19 pandemiyasi sharoitida ushbu kasallikning tarqalishi oldini olish bo'yicha ko'plab normativ hujjatlar qabul qilindi. Jumladan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 yanvardagi PF-5537-son farmoyishi bilan tashkil etilgan O'zbekiston Respublikasiga

koronavirusning kirib kelishi va tarqalishining oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar dasturini tayyorlash bo'yicha respublika maxsus komissiyasi qarorlari¹ ga muvofiq:

- dunyoning barcha davlatlari bilan O'zbekiston Respublikasi o'rtasida muntazam aviaqatnovlar to'xtatildi;

- xorijiy davlatlar fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarni, (respublikada doimiy istiqomat qiluvchi fuqaroligi bo'lmagan shaxslar bundan mustasno), shuningdek, yo'lovchi tashuvchi transport vositalarini (avtobus, yengil avtotransport va temir yo'l transporti vositalari) O'zbekiston Respublikasi hududiga barcha chegara o'tkazish punktlari orqali kirib kelishi to'xtatildi;

- O'zbekiston Respublikasi hududiga kirib kelayotgan shaxslarni 14 kun davomida maxsus ajratilgan tibbiyot muassasasi yoki karantin tadbirlarini tashkil etishga moslashtirilgan bazalar yoxud uy sharoitida karantinga olish talabi belgilangandi;

-O'zbekiston Respublikasi hududida barcha ko'ngilochar ob'ektlar, shu jumladan tungi klublar, diskoteka, restoran, kafe, oshxona, choyxona, spa va massaj salonlar, karaoke, bilyard zallari, chilim (kalyan) markazlari va kompyuter o'yinlari xizmatini ko'rsatuvchi tadbirkorlik faoliyati to'xtatildi;

-O'zbekiston Respublikasi hududida barcha turdagi ommaviy tadbirlar, shu jumladan bayram tadbirlari, xalqaro tadbirlar va sport musobaqalari, shuningdek, teatr, kino va konsert dasturlari hamda to'ylar, oilaviy tantanalar, ma'raka va marosimlar o'tkazilishi (dafn marosimlari 10 — 15 kishidan ko'p bo'lmagan hollar bundan mustasno) to'xtatildi;

-davlat oliy ta'lim muassasalarida, umumiy o'rta, o'rta maxsus, maktabdan tashqari va maktabgacha ta'lim muassasalarida hamda barcha nodavlat ta'lim tashkilotlarida ta'lim jarayonlari to'xtatildi.

Bundan tashqari Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida xorijdan kelgan fuqarolarni 14 kunlik karantinga olish maqsadida karantin markazlari tashkil etildi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki bugungi kunda ayrim qit'a va mamlakatlarda tarqalayotgan va ko'plab insonlarning kasallanishiga, o'limiga sabab bo'layotgan turli xil infeksiyon kasalliklar shuningdek, koronavirusning yangi shtami hamda epidemiyalar bizni befarq qoldirmasligi kerak. Chunki hozirgi xalqaro aloqalar yo'lga qo'yilgan, ichki va tashqi migratsiya, turizm kabi sohalar rivojlangan bir davrda turli xil yuququmli kasalliklarning mamlakatimizga kirib kelish ehtimoli juda yuqori. Bunday holatlarning oldini olish maqsadida esa yuqorida aytib o'tilgan kasallik kirib kelishi mumkin bo'lgan jarayonlarni qat'iy nazoratga olish, tibbiy tekshiruvlar o'tkazish, aholining tibbiy madaniyatini yuksaltirish va sanitariya gigiyena qoidalariga qat'iy rioya qilish maqsadga muvofiq bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 yanvardagi F-5537son farmoyishi
2. Ганиев Ф. Ўғ'ирлик жиноятларининг профилактикаси тушунчаси ва турларига оид айрим мулохазалар //Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук. – 2023. – Т. 3. – №. 4. – С. 37-42.
3. Ganiyev F., O'zoqboyev S. VOYAGA YETMAGANLAR TOMONIDAN SODIR QILINADIGAN JINOYAT ISHLARINI YURITISH //Евразийский журнал технологий и инноватсий. – 2023. – Т. 1. – №. 12 Part 2. – С. 131-134.
4. Ganiyev F., O'zoqboyev S. VOYAGA YETMAGANLAR TOMONIDAN SODIR QILINADIGAN JINOYAT ISHLARINI YURITISH //Евразийский журнал технологий и инноватсий. – 2023. – Т. 1. – №. 12 Part 2. – С. 131-134.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 yanvardagi F-5537son farmoyishi

5. Ganiev F. O'g'irlik jinoyatlarining profilaktikasi tushunchasi va turlariga oid ayrim mulohazalar //Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук. – 2023. – Т. 3. – №. 4. – С. 37-42.
6. G'aniev, Ф. Т. (2023). O'G'RILIK JINOYATINING JINOYAT-HUQUQIY JIHATLARI VA OLDINI OLISHGA DOIR FIKR-MULOHAZALAR. *Results of National Scientific Research International Journal*, 2(12), 301-313.
7. G'aniev F. PROFILAKTIKA INSPEKTORLARI TOMONIDAN O'G'RILIKLARNING OLDINI OLISH FAOLIYATINI TASHKIL ETISH YO'NALISHLARI //Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук. – 2022. – Т. 2. – №. 12. – С. 159-162.
8. G'aniev F. "OBOD VA XAVFSIZ MAHALLA" TAMOYILIGA ASOSLANGAN TIZIMNI JORIY ETISHDA FUQOROLAR YIG'INLARINI FAOLIYATINI TIZIMLI YO'LGA QO'YISH //Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук. – 2023. – Т. 3. – №. 3. – С. 96-98.

